

**“O‘zRTXB” AJning 2023-yilda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan**

**HISOBOTI**

<b>T/r</b>	<b>Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Ijro holati</b>
1.	<p>Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni doimiy ravishda tahlil qilib borgan holda birjaning ichki me‘yoriy hujjatlarini muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirish.</p>	<p>Tizimli ravishda raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.                      Birjada Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzulishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish va zaruratga ko‘ra tegishli takliflarni kiritish.</p>	<p>Yil davomida.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasining raqobat to‘g‘risidagi qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar doimiy ravishda o‘rganib borildi.</p>
2.	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas‘ul xodimning bilim hamda ko‘nikmasini oshirish.</p>	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv amaliy seminarlarda ishtirok etish.</p>	<p>Taklif kelib tushgandan so‘ng</p>	<p>2023-yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-sonli Qonunining yangi tahriri mohiyati va ijrosiga bag‘ishlangan muhokamada qatnashildi.                      Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar hamda boshqa qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyati va ahamiyati mavzusida joriy yilning 27-oktabr kuni tashkil etilgan seminarda ishtirok etildi.</p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro holati
3.	Birjada raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi xavflarini aniqlash va ularni oldini olish.	Birjaning ichki normativ huquqiy hujjatlari loyihalarini doimiy o'rganib borish. Bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda Boshqaruv raisini xabardor qilish.	Yil davomida.	<p>Birja faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan normalar va qoidalar doimiy ravishda tahlil qilinib kelinmoqda.</p> <p>Xususan, joriy yil "O'zRTXB" AJda qabul qilingan 20 dan ortiq lokal hujjatlar qoralamalari o'rganib chiqilib, raqobatga zid bo'lgan normalar aniqlanmadi.</p> <p>Shu bilan birga, yuridik shaxslarni birja a'zoliciga qabul qilish bo'yicha qabul qilingan 27 ta Boshqaruv yig'ilishi bayoni tahlil qilinib, raqobatga zid bo'lgan holatlar aniqlanmadi.</p>
4.	Birja xodimlari orasida "Raqobat qonunchiligidagi yangiliklar va amalda qo'llanilishi" mavzusida seminarlar o'tkazish.	<p>1. Birja xodimlari orasida masofaviy shaklda raqobat qonunchiligi va uni buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o'zgarishlar, yangiliklar to'g'risida seminar va trening mashg'ulotlarini o'tkazish.</p> <p>2. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik yuzasidan tarqatma materiallar tayyorlash va xodimlarga tarqatish.</p>	Yil davomida.	<p>2023-yilning 2-iyun kuni "O'zRTXB" AJ Markaziy apparati binosida birja xodimlari uchun Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan birgalikda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali joriy etish – faoliyatning raqobat qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlash mavzusida seminar tashkil etildi.</p> <p>Shu bilan birga, "O'zRTXB" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi nomli flyer tayyorlanib barcha xodimlarga tarqatildi.</p>
5.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram, veb-saytlar orqali yangi loyihalar va takliflar bo'yicha axborotlarni almashishni yo'lga qo'yish.	Yil davomida.	"O'zRTXB" AJning Komplayens nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan doimiy axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro holati
6.	Monopoliyaga qarshi koplaens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotini tayyorlash.	Har yili monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotini tayyorlash, Jamiyat boshqaruv raisiga taqdim etish.	Har yili 20 dekabrga qadar	“O‘zRTXB” AJ Boshqaruv raisiga birjada monopoliyaga qarshi koplaens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobot taqdim etildi.